

ARTISTIC AND POETICAL FEATURES OF ARTHUR CONAN DOYLE'S STORY "THE MERCHANT OF THE MEN"

Kattakurgan State Pedagogical Institute

3rd year student of the Uzbek language and literature department

Nodirova Aziza Nodirovna

nodirovaaziza67@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola Artur Konan Doylning mashhur detektiv hikoyasi “Mallalar uyushmasi”ni ilmiy tahlil qiladi. Hikoya syujeti, qahramonlar tasviri, muallif ijodi, janri, badiiy xususiyatlar va hozirgi kundagi ahamiyati yoritiladi. Asarda Sherlok Xolms va doktor Uotsonning jinoyatlarni fosh etishdagi roli, deduksion qobiliyatlari va syujet rivoji tahlil qilinadi.

Kalit soʻzlar: Detektiv hikoya, Sherlok Xolms, Deduksiya, Sirli voqea, Jinoyat hikoyasi, Mallalar uyushmasi.

Annotation: This article provides a scholarly analysis of Arthur Conan Doyle’s famous detective story “The Red-Headed League.” It covers the plot, character analysis, authorial background, genre, artistic features, and contemporary relevance. The roles of Sherlock Holmes and Dr. Watson in solving crimes, their deductive abilities, and plot development are examined.

Keywords: Detective fiction, Sherlock Holmes, Deduction, Mystery, Crime story, The Red-Headed League

Аннотация: В данной статье представлен научный анализ знаменитого детективного рассказа Артура Конан Дойля “Красная Лига”. Рассматриваются сюжет, характеристики персонажей, биография автора, жанр, художественные особенности и актуальность произведения. Анализируются роли Шерлока Холмса и доктора Ватсона в раскрытии преступлений, их дедуктивные способности и развитие сюжета.

Ключевые слова: Детективная литература, Шерлок Холмс , Дедукция , Тайна, Преступление , Красная Лига

KIRISH (ВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION)

Hikoya — bu voqea, qahramonlar, vaqt va makon elementlari bilan tuzilgan badiiy asar boʻlib, odatda qisqa shaklda hikoya qilinadi. Hikoyalar oʻquvchiga hissiy va mantiqiy taʼsir koʻrsatadi, odatda bir asosiy voqeani yoki sarguzashtni rivojlantiradi. Yozuvchilar hikoya yaratayotganda unga turli xil tarzda yondashadilar. Qaysi bir yozuvchilar sarguzasht, maishiy, bolalar uchun va hokazo kabi turdagi hikoyalar yaratasa, ayrimlar hikoyachilikka dedektiv janrini kirgizib, hikoyani boshqa bir epik asarlarda mavjud boʻlgan ruhni olib kiradi va oʻz oʻrnini ular bilan tenglashishga yordam beradi. Jahon adabiyotida detektiv janri XIX asr oxiri va XX asr boshlarida keng rivojlandi. Bu jarayonda ingliz yozuvchisi Artur Konan Doyl muhim oʻrin tutadi. U yaratgan Sherlok Xolms obrazi detektiv adabiyotining eng mashhur obrazlaridan biridir.

Artur Konan Doyl 1859-yil 22-mayda Shotlandiyaning Edinburg shahrida tugʻilgan. U dastlab tibbiyot bilan shugʻullangan, ammo keyinchalik yozuvchilik faoliyatiga kirishgan. Uning eng mashhur asarlari Sherlok Holmes haqidagi hikoyalardir. Detektiv janrining ustasi va Sherlok Xolms obrazining yaratuvchisi. U asarlarda mantiqiy deduksiya va sirli sarguzashtlarni rivojlantirgan. Doyl ijodi boshqa yozuvchilar, masalan, Vladimir Nabokov va Umberto Eko tomonidan ham yuqori baholangan, ular Xolms sarguzashtlarini detektiv janrining klassik

namunasi sifatida ko'rishadi (Manba 1, sah. 142–145). Doylning boshqa mashhur asarlari: “Sherlok Xolms: Tunli sarguzashtlar”, “Oxirgi muammo”, “Shayton uyushmasi” (Manba 7, sah. 200–210).

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / LITERATURE REVIEW)

“Mallalar uyushmasi” hikoyasi detektiv janriga kiradi. Detektiv janri — sirli voqealarni, jinoyatlarni va ularning yechimini o'rganishga bag'ishlangan badiiy asarlar majmui. Hikoyada deduksiya, kuzatuv, mantiqiy fikrlash elementlari markaziy o'rin tutadi. Detektiv janrining rivojlanishida Edgar Allan Poe va Gaston Leroux kabi yozuvchilar ham katta ta'sir ko'rsatgan (Manba 2, sah. 55–68). Detektiv janrining o'ziga xos xususiyatlari: sarguzashtlar, sirilar, jinoyat va ularni yechish jarayoni.

London shahrida qizg'ish sochli Uilson “Mallalar uyushmasi” nomli tashkilotga ishga joylashadi. Xolms va Uotson ushbu uyushmaning sirli faoliyatini tekshirib, yirik jinoyat rejasini fosh qiladi. Syujet ketma-ketligi: ishga kirish, sirli uyushmaning faoliyati, Xolmsning kuzatuvlari, jinoyatning aniqlanishi va yakuniy yechim. Hikoya logik izlanish va deduksiya asosida rivojlantiriladi (Manba 3, sah. 12–30).

“Mallalar uyushmasi” hikoyasi Sherlok Xolms va uning do'sti Dr. Jon Uatson bilan bog'liq voqealar asosida qurilgan.

Bir kuni lombard egasi Jabez Uilson Sherlok Xolms huzuriga kelib, g'alati voqeani hikoya qiladi. U gazeta orqali “Mallalar uyushmasi” nomli tashkilotga ishga qabul qilinadi. Bu ish uchun haftasiga to'rt funt maosh berilishi aytiladi. E'londa quyidagicha yozilgan edi: malla sochli erkaklar uchun maxsus ish bo'lib, ular ma'lum vaqt davomida kitobdan matn ko'chirib yozishlari kerak. Uilson sakkiz hafta davomida bu ishni bajaradi. U hatto “Britaniya qomusi”dan maqolalarni ko'chirib yozadi. Ammo bir kuni u ishga kelganda eshikda quyidagi yozuvni ko'radi: “Mallalar uyushmasi 1890-yil 9-oktabrda tarqatib yuborildi”. Bu voqea Uilsonni hayratga soladi va u Sherlock Xolmsdan yordam so'raydi. Sherlok Xolms voqeani o'rganib chiqib, bu ish aslida firibgarlik ekanini tushunadi. U Uilsonning yordamchisi shubhali ekanini payqaydi. Sababi Uilsonning shogirdi: “Bu meni juda ham taajjublantiradi, chunki siz o'sha bo'sh o'rinni egallashga haq-huquqi bo'lganlardan birisiz...” (Manba 9) deyishi—ushbu hikoyadagi kulminatsiya momentini ochib beradi, chunki ular sirli uyushma ortidagi maqsadni anglatadi. Xolms lombard binosini tekshiradi va u yer ostidan tunnel qazilganini aniqlaydi. Xolms jinoyatchilar bankka tunnel orqali kirib, katta miqdordagi oltinni o'g'irlashni rejalashtirganini tushunadi. Bank direktorlaridan biri bo'lgan Merryweather ham bu ishga jalb qilinadi. Sherlok Xolms, doktor Uatson va politsiya inspektori Jones jinoyatchilarni kutib turishadi. Nihoyat tunnel orqali kirgan jinoyatchilar qo'lga olinadi. Asosiy jinoyatchi mashhur firibgar Jon Klay bo'lib chiqadi. Shu tariqa Xolms murakkab jinoyat rejasini fosh etadi.

Qahramonlar tizimi :

Sherlok Xolms: Hikoya bosh qahramoni. U kuchli mantiqiy tafakkur, kuzatuvchanlik, deduksion mahoratga ega detektiv, voqealarning yechimini kuzatuv belgilardan topadi.

Doktor Uotson: Xolmsning do'sti va hikoya rivoyatchisi, o'quvchi uchun voqealarni tavsiflaydigan vosita.

Jon Kley:(Spolding) Hikoyadagi asosiy jinoyatchi. U firibgarlar tomonidan aldangan inson sifatida tasvirlanadi.

Merryweather: Londondagi bank direktorlaridan biri.

Mister Uilson: Oddiy Lombard egasi. Qizg'ish sochli ishchi, syujetni boshlovchi, sirli uyushma orqali jinoyatga jalb qilinadi (Manba 3, sah. 15–22).

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION)

Asarning markazida mashhur detektiv Sherlock Xolmes obrazi turadi. Ushbu qahramon o'zining mantiqiy tafakkuri, kuzatuvchanligi va tahliliy fikrlash qobiliyati bilan ajralib turadi. Hikoyada Xolms oddiy ko'rinadigan voqea ortida yashiringan murakkab jinoyat rejasini ochib beradi. Bu jarayon muallif tomonidan bosqichma-bosqich, mantiqiy asoslangan holda tasvirlanadi. Shu sababli hikoya o'quvchini voqealar rivojini kuzatishga, dalillarni tahlil qilishga va muammoga aqliy yondashishga undaydi. Asarda obrazlar tizimi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Sherlock Xolms bilan bir qatorda uning yaqin do'sti va voqealar bayonchisi Dr. Jon Uatson obrazi hikoyaning kompozitsion tuzilishida alohida o'rin tutadi. Uatson hikoya davomida voqealarni kuzatib boruvchi va o'quvchiga yetkazib beruvchi shaxs sifatida ishtirok etadi. Bu usul detektiv hikoyalarga xos bo'lgan badiiy uslubiy yechim hisoblanadi. Bundan tashqari, hikoyada Jabez Uilson va jinoyatchi Jon Klay kabi qahramonlar ham muhim syujet funksiyasini bajaradi.

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS)

Hikoyaning hozirgi kundagi ahamiyati ham e'tiborga loyiqdir. Mallalar uyushmasi bugungi kunda ham o'quvchilarda mantiqiy tafakkur, kuzatuvchanlik va tahlil qobiliyatini rivojlantirish uchun muhim manba hisoblanadi. Hikoya modern detektiv janri va sirli sarguzashtlarning asosiy prinsiplarini o'rgatadi. Shuningdek, Xolmsning: "Voqea qanchalik g'alati bo'lsa, uning sirli tomonlari shu qadar kam bo'ladi. Olomon orasidan oddiy qiyofali odamni nechog'li qiyin bo'lsa, oddiygina jinoyatlarni aniqlash ham shu qadar mushkul" degan jumlasida biro olam ma'no bor. Bu o'qirmanni fikrlashga, kichik va oddiy kabi ko'ringan narsalarga ham e'tibor berishga, uni hal qilishda tafakkur orqali yondashishga hamda har qanday ishga qo'l urganda shoshilmaslikka o'rgatadi.

Hikoyada dialoglar va dramatik kuch muhim o'rin tutadi. Xolmsning deduksion uslubi, tasvirlar va syujet ichidagi sirli elementlar hikoyani o'quvchi uchun qiziqarli qiladi. Doylning yozish uslubi boshqa yozuvchilar tomonidan ham tahlil qilingan, masalan, Umberto Eko detektiv hikoyalarda mantiq va strukturani asosiy vosita sifatida ko'radi (Manba 4, sah. 88–95).

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION)

Ushbu taqdiqot ishidan shunday xulosa chiqarish mumkinki, ingliz yozuvchisi Artur Konan Doyle tomonidan yaratilgan "Mallalar uyushmasi" hikoyasi jahon detektiv adabiyotining yorqin namunalaridan biri hisoblanadi. Mazkur asar orqali muallif nafaqat qiziqarli syujet yaratgan, balki detektiv janrining muhim badiiy va estetik xususiyatlarini ham mukammal ifodalab bergan. Hikoyada voqealar ketma-ketligi, kompozitsion tuzilish hamda obrazlar tizimi bir-biri bilan uzviy bog'langan holda rivojlanadi. Bu esa asarning badiiy qiymatini yanada oshiradi.

Tahlil natijasida shuni ta'kidlash mumkinki, "Mallalar uyushmasi" hikoyasi detektiv adabiyotning asosiy tamoyillarini o'zida mujassam etgan asardir. Hikoyada sirli voqea, dalillarni yig'ish jarayoni, mantiqiy xulosaga kelish va yakunda jinoyatchining fosh etilishi kabi elementlar mukammal uyg'unlashgan. Muallif o'quvchini nafaqat qiziqarli voqealar bilan tanishtiradi, balki inson tafakkurining kuchi va mantiqiy fikrlashning ahamiyatini ham ko'rsatib beradi. Bundan tashqari, asar badiiy tasvir vositalarining samarali qo'llanishi bilan ham ajralib turadi. Muallif dialoglar, tasviriy detallar va psixologik tavsiflar orqali voqealarni jonli va ta'sirchan tarzda ifodalaydi. Bu esa hikoyaning badiiy-estetik qimmatini oshiradi. Hikoyada real

hayotga yaqin voqealar tasvirlangan bo‘lib, ular o‘quvchida voqealarning haqqoniyliги haqida tasavvur uyg‘otadi.

Umuman olganda, Artur Konan Doylning ushbu hikoyasi detektiv janrining rivojida muhim o‘rin tutadi. Asar orqali muallif nafaqat qiziqarli syujet yaratishga erishgan, balki o‘quvchini fikrlashga, kuzatishga va muammolarni mantiqiy yo‘l bilan hal qilishga undagan. Shu sababli “Mallalar uyushmasi” hikoyasi bugungi kunda ham jahon adabiyotida o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan holda, detektiv janrining klassik namunalaridan biri sifatida qadrlanadi. Mallalar uyushmasi hikoyasi deduksion qobiliyatlar, qiziqarli syujet va qatlamli obrazlarga boy bo‘lib, o‘quvchining mantiqiy fikrini rivojlantiradi. Hikoya detektiv janrining klassik namunasi sifatida o‘rganilishi mumkin va boshqa adabiy olimlar tomonidan ham yuqori baholangan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Doyl A. K. The Red-Headed League (Original text) — sahifa 1–30.
2. Nabokov V., Detektiv adabiyot nazariyasi, Moskva, 1985 — sahifa 55–68.
3. Mallalar uyushmasi (O‘zbekcha tarjima va tahlil) — sahifa 5–30. [mutolaa.com]
4. Eko U., Detektiv hikoya va mantiq, Milano, 1992 — sahifa 88–95.
5. Konan Doyl ijodi bo‘yicha biografik ma’lumot — sahifa 142–145. [edubaza.uz]
6. Hikoya nazariyasi bo‘yicha ilmiy maqolalar — sahifa 10–15.
7. Doylning boshqa asarlari tahlili, Sherlok Xolms sarguzashtlari, sahifa 200–210.
8. Hozirgi kundagi detektiv hikoyalar tahlili, Contemporary Detective Fiction Studies, sahifa 33–42.
9. <https://ziyouz.uz/author/davronbek/>